



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№8
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 68 sahifa,
1-avgust, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirli

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....	14
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna	
O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....	20
Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li	
Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....	25
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi	30
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati	33
Eshmuminova Oybarchin Botirovna	
Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv	39
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari	44
Maydonova Saboxat Sadulloyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalari qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	48
Mingbayeva Barno Ubaydullayevna	
Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies	52
Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna	
Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	55
Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi	
"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida	59
Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna	
O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni	65
Umarova Feruzabonu Bobir qizi	

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI KITOBXONLIKKA O'RGATISH USULLARI

Maydonova Saboxat Sadulloevna

Navoiy davlat universiteti

Pedagogika va psixologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur metodik tavsiyada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlikka bo'lgan qiziqishni shakllantirish usullari bayon etilgan. Unda o'qituvchining pedagogik mahorati, metodik yondashuvlari, o'quvchilarning yosh psixologiyasiga mos dars ishlanmalari, interaktiv o'yinlar va rolli mashg'ulotlar orqali kitob o'qishga undash yo'llari ko'rsatilgan. Shuningdek, bolalar adabiyotini to'g'ri tanlash, ota-onalarni jalb qilish va bolalarning mustaqil o'qish malakasini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. Tavsiya boshlang'ich sinf o'qituvchilari, amaliyotchi pedagoglar hamda talabalar uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, kitobxonlik, o'qishga qiziqish, bolalar adabiyoti, metodik yondashuv, rolli o'yin, ifodali o'qish, ota-onalar bilan hamkorlik, o'qish texnikasi.

Abstract: This methodological recommendation outlines effective methods to foster an interest in reading among primary school students. It highlights the teacher's pedagogical skills, methodological approaches, lesson plans aligned with children's psychological characteristics, as well as interactive games and role-playing activities that motivate reading. The guide also provides suggestions for selecting age-appropriate children's literature, involving parents in the reading process, and enhancing students' independent reading skills. This resource is intended for primary school teachers, practicing educators, and education students.

Key words: primary school, reading culture, interest in reading, children's literature, methodological approach, role-playing, expressive reading, parent-teacher collaboration, reading technique.

Аннотация: В данной методической рекомендации представлены эффективные методы формирования интереса к чтению у учащихся начальных классов. В работе освещаются педагогическое мастерство учителя, методические подходы, учебные занятия, соответствующие возрастной психологии детей, а также интерактивные игры и ролевые упражнения, побуждающие к чтению. Кроме того, даны рекомендации по правильному выбору детской литературы, привлечению родителей к процессу чтения и развитию навыков самостоятельного чтения у детей. Рекомендация предназначена для учителей начальных классов, практикующих педагогов и студентов педагогических вузов.

Ключевые слова: начальные классы, культура чтения, интерес к чтению, детская литература, методический подход, ролевая игра, выразительное чтение, взаимодействие с родителями, техника чтения.

KIRISH

Boshlang'ich ta'lim bosqichi bolaning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayniqsa, bu davrda kitob bilan tanishish, o'qishga qiziqish uyg'otish, o'z fikrini to'g'ri bayon etish kabi ko'nikmalar shakllanadi. Kitobxonlik – bu nafaqat o'qish jarayoni, balki bolada tafakkur, xayol, nutq va ma'naviyatni rivojlantirish vositasidir. Shu bois, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish o'qituvchidan aniq metodik yondashuv va sabr talab qiladi. Mazkur mavzu doirasida aynan yoshga mos, interaktiv va ifodali usullar yordamida bolalarni kitobga mehr uyg'otish yo'llari tahlil qilinadi. Axborot-kommunikatsiya kundalik turmushimizning ajralmas qismiga aylangan asrimizda yoshlarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Deyarli barchamiz kitob – insonning erkin fikrlashi, dunyoqarashining kengayishi, aqlan yetuk bo'lishi, ma'naviyatining shakllanishida asosiy o'rinni egallashini bilamiz. Kitob o'qigan insonning aqli charxlanib, ma'naviyati boyib, yetuklik sari ildamlashi borasida ko'p ta'kidlanadi. Kitob o'qimagan insonning ongi ma'naviy qashshoqlashib qolishidan xavotirlanib so'zlaymiz. Kitob o'qish miyani oziqlantirish demakdir. Ma'naviy oziq olgan tafakkur tobora o'z ko'lamini kengaytira boradi. Mushohada imkoniyati oshadi. Keng mushohada insonga halovat baxsh etadi.



Kitobning, mutolaa madaniyatining nechog'li ahamiyatli ekanligi e'tiborga olinib, yuksak saviyadagi o'quv, ilmiy, badiiy va ma'rifiy adabiyotlarni nashr etish, mutolaa madaniyatini oshirish borasida Prezident Sh. Mirziyoyev tomonidan farmoyish va qarorlar chiqarildi. Hatto ijtimoiy, madaniy va ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish maqsadida ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusdan to'rtinchi tashabbus – yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan. Davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan mazkur masalalarni yanada ommalashtirishda nimalarga e'tibor qaratmoq darkor? Farzandga kitob mutolaa qilishni qachondan o'rgatmoq lozim? Kitob mutolaasi qayerdan boshlanadi? Qanday qilib o'quvchini kitobga oshno etsa bo'ladi? Bu kabi savollar bugungi globallashuv davrida o'zining amaliy yechimini kutmoqda.

Kitobga mehr o'yg'otish asosan oila davrasidan boshlanadi. Ayniqsa, kichik yoshdagi bolalarga afsonaviy va konstruktiv obrazlar mujassamlashgan bolalar badiiy adabiyotidan namunalarini ota-onalar o'qib eshittirsalar, ularga o'zlari mustaqil o'rganganlaridan ko'ra kuchliroq ta'sir etadi. Bolalarga uyqudan oldin turli ertaklar aytib, kitoblar o'qib berish asnosida ularning mutolaaga bo'lgan qiziqishi oshadi. Bola kitobni sevish uchun ota-onasining mutolaaga mehri baland bo'lishi lozim. Buning uchun uyda kitob ko'p bo'lsa, ayni muddao. Agar uyga kitob olib kelib, oilada o'qilsa, farzandlar, albatta, bu an'anani davom ettiradi. Kishi bolalikdan kitob o'qishni odat qilmas ekan, keyinchalik ham uning kitobga qiziqishi qiyin. Shuning uchun bizning vazifamiz – bolalar qalbida kitobga mehr uyg'otishdir. Kitobxonlikni oilamizdan boshlashimiz kerak. O'sib kelayotgan bolaning har tomonlama sog'lom voyaga yetishi va ma'naviy yetuk bo'lishida oilaviy muhit muhim o'rin tutadi. Darhaqiqat, har bir ota-ona farzandi sog'lom bo'lib voyaga yetishi, o'qishi, hunar o'rganishi, sport bilan shug'ullanishi, ilm olishi uchun doimiy harakatda bo'lmog'i lozim. Komil farzandni tarbiyalash uchun hech qanday jihatdan nazardan chetda qoldirmaslik zarur.

Unutmaylik, sog'lom bola – ona Vatanning ishongan tayanchidir. Har bir xonadonda farzandlarimiz zo'r qiziqish bilan o'qiydigan "O'zbek xalq ertaklari", "Alpomish", "Go'ro'g'li" dostonlari, "Odam va olam ensiklopediyasi", "Bolalar ensiklopediyasi" va jahonga mashhur kitoblar o'rin olsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bolaning aqliy rivojlanishi haqida qayg'uradigan ota-ona unga, albatta, kitob o'qib berishi kerak ekan.

Bolaga har kuni yotishdan oldin baland ovozda kitob o'qib berilsa, uning aqliy rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir qiladi. Ruhshunoslar tekshiruvlari shuni ko'rsatadiki, bolaga kitob o'qib berilganida unda aqliy rivojlanish omillari asosida quyidagi psixologik jarayonlarning ta'siri natijasida ijtimoiy omillarning yuksak tamoyillariga mos imkoniyatlar hamda tavsifiy xususiyatlar mujassam bo'ladi: unda so'z boyligi oshadi, kitobga mehr paydo bo'ladi, muomalasi chiroyli bo'ladi. Kitobda qanchalik mukammal so'zlar mavjud bo'lsa, kelajakda bolaga bu so'zlarni o'rganishi yanada oson bo'ladi.

Yangi tug'ilgan chaqaloqqa 5 daqiqa davomida bo'lsa ham, kitob o'qib berish uning ham aqliy rivojlanishi uchun juda foydalidir. Yana bir tadqiqotning ko'rsatishicha, 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarga ko'p kitob o'qib berilsa, ularning chap miya yarim shari rivojlanar ekan. Bu degani – bolada suhbat qilish, tasavvur, tilga moyillik kabi xislatlar yuksaladi. Kitobning o'qilishini ko'p eshitgan bola buyum va so'zlar orasida bog'liqlikni ko'p ko'ra boshlaydi. Bu esa bolaning miyasini ilmiy, akademik yo'nalishda rivojlanishiga turtki bo'ladi. Bundan tashqari, uyquga ketishdan oldin kitob o'qilsa, bola oson uyquga ketadi va tinch uxlaydi, ota-ona va bola orasidagi ruhiy munosabat yanada mustahkamlanadi. Bolaga qanday kitob o'qish lozim? Eng yaxshi kitob – bu klassik ertak va hikoyalardir. Lekin undan ham yaxshi tanlov – bolaga o'zi qiziqqan kitobni o'qib berishdir. Bola bilan kitob do'konlariga tez-tez borib turish kerak. U yerda bola o'zi qiziqqan, tanlagan kitobini olib berib, unga o'qib berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bitta o'yinchoqning narxiga ba'zida 10 dona kichik kitob sotib olsa bo'ladi. Ota-ona pulni sifatsiz, keraksiz va ba'zida zararli plastiklardan yasalgan o'yinchoqlarga emas, foydasi har tomonlama katta va qiziqarli kitobga sarflasa, bolaning kelajagiga katta ijobiy hissa qo'shgan bo'ladi. Keyinchalik bola ham o'yinchoq do'koniga emas, balki kitob do'koniga borishni afzal ko'rib qoladi. Shaxsiy oilaviy kutubxona – ma'naviyat va ma'rifat o'chog'i.

O'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy dunyosini boyitishga, kitobga bo'lgan mehr-muhabbatning oshishiga xizmat qiladi. Har bir inson oilaviy kutubxonalar ma'naviyat xazinasidan, bu cheksiz imkoniyatdan iloji boricha ko'proq foydalanishi, o'zining va o'zgalarning hayotini boyitishi mumkin. Millatning ma'naviy-ruhiy dunyosi kitobga munosabati, kitobxonlik darajasiga qarab ham aniqlanishi mumkin. Jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan ajdodlarimiz erishgan betakror yutuqlarning sababi ham kitob mutolaasidir. Kitob – ruhiyatimiz ozuqasi, u bilan do'stlashish nafaqat bizni ma'nan yuksaltiradi, balki jahonni tanitadi, ezgulikka yetaklaydi. Bolalik – beg'uborlik faslining oltin zinalaridan katta hayotga qadam qo'yayotgan farzandlarimiz qo'lga imkon qadar kitob tutqazaylik. Zero, ma'rifatli, ma'naviy boy va bilimli insonlarga yurti obod qiladi. Ilm-fan va u orqali erishiladigan farovonlik bilan dunyoga tanilish esa bebahodir. Barkamol avlodni voyaga yetkazishda kitobning tarbiyaviy ahamiyati beqiyos. Binobarin, aynan mutolaa insonga bilim va axborot beradi, uning ma'naviy olamini boyitadi. Yaxshi kitob – eng murakkab savollarga javob topishda beminnat dastyordir.

Kitob haqida har qancha gapirish, uning sifatlarini soatlab maqtash mumkin. Sababi, eng yaqin do'st, eng zarur hamroh bo'lgan kitob – insoniyat kashf etgan ixtirolarning eng buyugi va eng qadrlisi, zamonlar o'tsada,



o'z o'rnini hech nimaga bo'shatib bermagan mo'jizadir. Donolar kitob va kitobxonlik haqida fikr bildirar ekan, adabiyotlar bilan oshno qalbga hech qachon yomonlik in qurmasligini ta'kidlashadi. Ayniqsa, bolaligidanoq kitobga mehr qo'yg'anglar kelajakda ham ma'naviy yetuk, aqlan barkamol bo'lib o'sib-ulg'ayadilar. Ular o'zlari o'rgangan kitobdagi ijobiy obrazlar qahramonlari singari barcha sohada oliyjanoblikni gavdalandirishga harakat qiladilar. Insoniyatning eng yaxshi farzandlari – bolalikdan kitob bilan do'stlashganlar. Kitobning har bir sahifasi – olam-olam bilim bilan to'ladir. Bolada kitobga mehr va qiziqish uyg'otish, unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish uni to'g'ri tarbiyalash omilidir. Shunday ekan, bolalarni kitob mutolaasiga o'rgatish, uni har kunlik ehtiyojga aylantirishimiz lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga hajmi katta bo'lmagan ertak, hikoya, she'rlarni berilib tinglash, tushunish, voqealar rivojini diqqat bilan kuzatish ishtiyoqi kuchli bo'ladi. Ixcham she'rlar bilan tanishtirish orqali she'riy ohangning jozibadorligidan zavqlanish, shodlanish kabi his-tuyg'ular shakllantirib boriladi. Shu bilan birga ertaklar, dostonlar, afsona va rivoyatlar o'qib berish yoki o'qitish ham bolaning og'zaki nutqini rivojlantirib, yomon bilan yaxshini ajrata olishi va yaxshilikka intilishini kuchaytiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka jalb qilishda bolalar uchun mo'ljallangan adabiy asarlarning roli beqiyosdir. G'afur G'ulomning "Shum bola" asari orqali o'quvchilar shijoat, topqirlik va mehnatsevarlik kabi fazilatlarni o'rganadilar. To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari esa bolalarda orzu qilish, hayot va ezgulik g'oyalarini shakllantiradi. Hakim Nazirning "Sehrli qalpoqcha" asari orqali esa bolalarda fantastik fikrlash, yaxshilik va yovuzlik tushunchalari kuchayadi.

Zulfiya, Erkin Vohidov va Nodira G'ulomning bolalar she'rlari orqali estetik did, tabiatga mehr va ona Vatanga sadoqat singari qadriyatlar bolalarning qalbiga chuqur singdiriladi. Mirtemirning soddalashtirilgan "Otamdan qolgan dalalar" asari esa mehnatga hurmat va ota-avlod merosiga ehtiyotkorlikni o'rgatadi. Ubaydulla Normatovning "G'ozlar oroli" asarida esa hayvonot olamiga bo'lgan mehr bilan bir qatorda do'stlik va birdamlik g'oyalari ilgari suriladi.

Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshomlar" asari murakkabroq bo'lsa-da, 4-sinf o'quvchilari uchun tavsiya qilinsa, ularni milliy tarixga, otliq madaniyatga va iroda kuchiga qiziqtiradi. O'zbek xalq ertaklaridan "Zumrad va Qimmat", "Boy va gado", "Tulki va Bo'ri" kabi namunalarda esa an'anaviy axloqiy mezonlar, odil hukm, halollik va xushyorlik singari qadriyatlar o'rgatiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida ma'lumotlar asosan kuzatuv, suhbat va ota-onalar bilan o'tkazilgan muloqotlar orqali yig'ildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari va ularning ota-onalari ishtirokida o'tkazilgan suhbatlar orqali farzandlarda kitobga bo'lgan qiziqish darajasi, kitobxonlik muhiti va oilaviy odatlar aniqlashtirildi. Kuzatuvlar sinf kutubxonasi tashkiloti, tanlovlar va teatriy mashg'ulotlar jarayonida olib borildi. Olingan ma'lumotlar sifat jihatdan tahlil qilinib, o'quvchilarning faolligi, ishtiroki, fikr bildirishi hamda ota-onalarning yondashuvi asosida xulosalar chiqarildi. Tahlil natijalari metodik yondashuvlarning samaradorligini aniqlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shunday ekan, biz – ustozlar va ota-onalar farzandlarimizning kitobni sevib o'qishlari, kitobga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otishimiz uchun qanday yo'l tutmog'imiz kerak, degan savolni o'zimga berdim va men faoliyat yuritayotgan Navoiy shahridagi Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyotga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'quvchilari ota-onalarini ham bu yechimni topishga undadim.

O'quvchilarning darslikdan tashqari adabiyotlarni o'zlari xohlab o'qishlari uchun nimalar qilishimiz kerakligi xususida kengashdik. Ota-onalar bu borada o'z fikrlarini va takliflarini o'rta tashladilar. Ota-onalar birinchi navbatda oilada ijobiy kitobxonlik muhitini yaratish uchun oila kutubxonasi mavjud bo'lishi farzandlarimizda kitobga qiziqish uyg'otishini ta'kidlab o'tdilar. Ular har bayramlarda, tug'ilgan kunlarda kitob sovg'a qilish ham katta ijobiy ta'sir ko'rsatishini aytib o'tdilar.

Shundan so'ng ota-onalar tashabbusi va homiyligi asosida sinf kutubxonasi tashkil etildi. Sinf kutubxonasiga o'quvchilarning yoshiga mos 60 ta kitob taqdim etildi. Bundan tashqari, o'quvchilar o'zlari o'qib bo'lgan kitoblarni uylaridan olib kelib, sinf kutubxonasiga topshirdilar. Bundan maqsad – kitoblarni qo'lma-qo'l qilib o'qilishini ta'minlashdir. Qanday qilib, deysizmi?

Sinf kutubxonasiga o'quvchilardan kutubxonachi tayinlab olindi. Sinf kutubxonachisi o'quvchilarning kitob olib qaytarib berishlari uchun alohida daftar tutib bordi. Bu daftarga har haftada bir marta o'quvchilarning ismi-sharifi va o'qigan kitobining nomi yozib boriladi. Kitobxonachilar bu haqda o'qituvchiga ma'lumot berib boradi. O'qituvchi esa bolaning ertak, hikoya, rivoyat va asarlardan olgan taassurotlarini so'zlab berishiga va xulosa chiqarishiga e'tibor qaratishi lozim. Shundagina bola fikrlaydi va shaxsiy munosabatini bildiradi.



O'quvchilarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish uchun har chorakda "Eng kichik kitobxon" tanlovi tashkil etildi. Bunda eng ko'p kitob o'qigan o'quvchi aniqlanib, rag'bat sifatida kitob bilan taqdirlanadi.

Bundan tashqari, o'quvchilar o'qigan kitoblari asosida "Men sevgan ertak qahramoni" mavzusida rasmlar tanlovi o'tkaziladi. O'quvchi o'qigan ertak, hikoya yoki asarning o'ziga yoqqan qismiga asosan rasm chizadi (rasmlar alohida papkaga joylab boriladi). Eng ko'p rasm chizgan o'quvchi aniqlanib, rag'batlantiriladi va namuna sifatida o'quvchilarga ko'rsatiladi.

Bunday tanlovlar sinfda sog'lom raqobat asosida bolalarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otadi. Farzandlarimiz tafakkurini boyitish maqsadida "Yosh teatrchilar to'garagi" tashkil etiladi. Bunda o'quvchilar o'zlari o'qigan ertak yoki hikoya asosida sahna ko'rinishlarini namoyish etib boradilar. Bu esa jajji bolajonlari-mizni erkin va mustaqil fikrlashga undaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlikni shakllantirish – bu o'qituvchining eng muhim va mas'uliyatli vazifalaridan biridir. Kitob o'qish madaniyatini shakllantirish orqali bola nafaqat o'qish texnikasini o'zlashtiradi, balki axloqiy, estetik va ma'naviy fazilatlarni ham egallaydi. Kitob bolaning fikrlash doirasini kengaytiradi, nutq boyligini oshiradi va shaxsiy kamolotiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim jarayonida bolani zo'rlab emas, balki qiziqitirib, rag'batlantirish orqali o'qishga undash muhim ahamiyatga ega. Rag'bat – bu faqat moddiy emas, balki ma'naviy qo'llab-quvvatlash, tan olish, e'tirof etish va ijtimoiy motivatsiyani shakllantirish vositasidir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, o'qituvchi, ota-ona va maktab kutubxonasi o'rtasidagi uzviy hamkorlik asosida kitobga bo'lgan muhabbatni shakllantirish jarayoni yanada samarali kechadi.

Tizimli va metodik yondashuv orqali o'quvchilarning yoshiga mos, qiziqarli va interaktiv uslublar asosida olib borilgan o'quv mashg'ulotlari bolalarda kitobxonlikka ijobiy munosabatni erta yoshdan boshlab mustahkamlashi mumkin. Bu esa kelajakda ularning mustaqil fikrlovchi, ma'rifatli va ongli fuqaro bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Har bir boshlang'ich sinfda sinf kutubxonasini tashkil qilish va uning fondini o'quvchilarning yoshiga mos badiiy va ma'rifiy adabiyotlar bilan to'ldirish.
2. Har chorakda "Eng faol kitobxon", "Men sevgan qahramon" kabi tanlovlarni o'tkazish va natijalarni baholash mezonlarini ochiq belgilash.
3. Maktab kutubxonachilari bilan hamkorlikda ota-onalar uchun "Farzandingiz va kitob" mavzusida suhbatlar, davra suhbatlari o'tkazish.
4. O'quvchilarni maktabdan tashqari kutubxonalarga jalb etish uchun ekskursiyalar, ko'rgazmali tadbirlar va teatr sahnalashtirish mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish.
5. Kitobxonlikni rivojlantirish bo'yicha har yili an'anaviy "Kitob haftaligi" tashkil etish va ushbu haftalik doirasida mahorat darslari, uchrashuvlar, sahna ko'rinishlari, ijodiy musobaqalar o'tkazish.

Xulosa qilib aytganda, kitob o'qish madaniyatini erta yoshdan shakllantirish orqali farzandlarimiz tafakkurini, ma'naviyatini va axloqini yuksaltirish imkoniga egamiz. Bu esa jamiyatimizning barqaror taraqqiyoti va sog'lom, ziyrak, bilimli avlodni tarbiyalashda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimova Z. – Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
2. Turg'unova N., Xodjayeva S. – Boshlang'ich sinflarda o'qish va yozuv o'rgatish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Bobomurodova M. – Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2020.
4. Yo'ldoshev A., Jumaniyozova M. – O'quvchilarda o'qish malakasini rivojlantirish. – Samarqand: Zarafshon, 2022.
5. G'ulomova N. – Kitobxonlik darslarida interfaol usullardan foydalanish. – Toshkent, 2020.
6. Xo'jamqulova M. – O'qituvchining nutq madaniyati va ifodali o'qish metodikasi. – Toshkent: Iste'dod, 2018.
7. Tadjibayeva Z. – Boshlang'ich sinfda ifodali o'qish mashg'ulotlari. – Nukus: Bilim, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.